

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TA'LIM TURLARI ARO INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK VA INTELLEKTUAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Mirkomil Shukurov To'liqin o'g'li

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada integratsiya so'zi bilan tanishish, ta'lim sohasida integratsiya, integratsiyalangan darslar o'quvchilarga qanday samara berishligi va o'qituvchi-pedagoglarga dars jarayonini takomillashtirish haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Integratsiya, sistema, organizm, funktsiya, iqtisod, differentsiatsiya.*

***Annotation:** This article provides detailed information on the word integration, integration in education, how integrated lessons are effective for students, and how teachers can improve the teaching process.*

***Keywords:** Integration, system, organism, function, economy, differentiation.*

***Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о слове «интеграция», «интеграция в образовании», о том, насколько интегрированные уроки эффективны для учащихся, и как учителя могут улучшить учебный процесс.*

***Ключевые слова:** интеграция, система, организм, функция, экономика, дифференциация.*


Ma'lumki, hozirda ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishni intellektuallashtirish zamonaviy pedagogikada dolzarb muammolardan biri bo'lib turibdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini intellektuallashtirish ham qaralayotgan jarayon yoki hodisani o'rganishga nisbatan innovatsion yondashuv qilishni talab etadi. Bunday

yondashuvlar manbalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga mos axborotlar va bilimlar banki negizidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishning optimal variantlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Ular asosida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'ziga xos pedagogik tadqiqot hisoblanib, u bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi va bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar esa Davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, rejalashtirilayotgan integratsiyalashgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar talab qilinadi va ular ushbu jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi. Ular manbalarni ilmiy asosda o'rganish; kreativ yondashuvlar qilish; manbalarni tizimli tadqiq qilish; ko'nikma va malakalarni shakllantirishni axborotlashtirish negizida intellektuallashtirilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish kabilarning optimal variantlarini ishlab chiqishlarga ham fundamental asos bo'la oladi.

Endi bevosita integratsiyalashgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoniga o'tamiz. Bunday intellektuallashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning innovatsion texnologiyasini "O'qish va o'qitishda interaktivlik", deb atadik. Bunga sabab qo'yilgan muammoni hal qilishning har bir harakati ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi va bu o'z navbatida ta'lim sifati kafolati bilan uning samaradorligini oshirishga qaratilayotgan harakatlar majmuidan iborat bo'lgan innovatsion faoliyatdir. Bu qayd etilgan jarayonni quyidagi ko'rinishda ifodalashni lozim topdik.

1.Jadval



Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “O‘qish va o‘qitishda interaktivlik ” texnologiyasining harakatlar strategiyasi asosan uch qismdan iborat bo‘ladi. Ulardagi “Fundamental bosqich”ni tashkillashtirishda an’anaviy ta’lim jarayoni asos qilib olinadi. Dinamik bosqich”ga oid tadqiqotlar ham o‘ziga xos Strategik tizimni ifodalaydi. Undagi intellektuallashtirilgan bilimdan unga asoslangan ko‘nikmaga va shuningdek, malakalarni shakllantirishlarga o‘tishlar ham tadqiqot davomidagi uzviylik hamda uzluksizlikni talab etadi. Bular esa qaralayotgan jarayonni monitoring qilib borishni ham talab etadi. Shu sababli ushbu bosqichda intellektuallashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganligini aniqlashning quyidagidek maqsad funksiyalarini tayyorlab oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 - fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”i Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.-T: 2017 y, 6 – son, 70 – modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi. - T.: 2012 (29.05.2012 y.). – B.1.
3. Mirziyayev Sh.M. Ilm – fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili// “Xalq so‘zi” 2016 yil, 31 – dekabr
4. Jamollidinov Z. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida pedagog faoliyatiga qo‘yilgan talablar// Xalq ta’limi. IMJ. – T.: 2007. - №4. – B.19-21.